


RUBOB - CHOLG'U ASBOBI



Mirzaolimova Gulshanoy Mirzohidjon qizi

Andijon davlat Pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti

Musiqiy ta'lif yo'nalishi 203-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijrochi sevadigan va eng qadimiy cholg'u asboblaridan biri rubobning kelib chiqishi, qismlari va turlari haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: rubob, afg'on rubobi, qashqar rubobi, pomir rubobi, qadimiy cholg'ular.

Musiqa san'ati insoniyatning ma'naviy boyligi, asriy qadriyatlarini namoyon etuvchi mezonlardan biri sifatida ardoqlanib kelinadi. Xususan, milliy musiqiy cholg'ularda ham har bir xalqning uzoq yillar mobaynida shakllanib kelgan rang barang an'analari o'z aksini topadi. Shunday ekan cholg'ularni insoniyat ma'naviyatining bir bo'lagi sifatida o'rganib, tadqiq va targ'ib etish eng dolzarb masalalardan biri desak xato bo'lmaydi. Tanbur, dutor, chang, nay, gijjak, rubob kabi xilma-xil milliy cholg'ularimiz o'ziga xos tuzilish va tarixga ega. Har bir cholg'u asbobi o'z ma'nosiga, o'z tembriga va boshqa farqli xususiyatlariga ega. «Milliy sadosi bilan ajralib turadi», degan iboraga kelganda, bu borada shuni aytish zarurki, musiqaning milliy o'ziga xosligini (ijro usulini) cholg'u asbobidan ham ko'proq, qanday asbobda chalayotganidan qat'iy nazar, ijrochi belgilaydi. Mana shunday ijrochi sevadigan cholg'u asboblaridan biri rubobdir. Rubob eng qadimiy cholg'u asboblari turiga kiradi. Noxun (mediator) bilan chertib chalinadi. O'zbek, tojik, uyg'ur, afg'on va boshqa sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Ba'zi olimlar fikriga ko'ra, qadimda 2 torli kamonli rubobdan zamonaviy skripka yuzaga kelgan. Rubob — O'zbekistonda professional va xavaskor xalq sozandalarida ikki tipdagi — afg'on va qashqar rubobi uchraydi.

Rubob cholg'u sozini organish uchun avalo uning tuzulishi bilan tanishib chiqamiz.



1. Bosh qismi: beshta qulogdan iborat sozlash vazifasini bajaradi.
2. Shayton xarrak
3. Dasta qismi: dasta qismida yigirma to‘rt pog‘onali tovush katorlaridan iborat.
4. Xarragi.
5. Rubobning baliq terisi bilan qoplangan kosasi.
6. Ilmoqlari va uchta simdan iborat

Hozirda rubobning uch xili mavjud: *qashqar rubobi*, *afg‘on rubobi* va *pomir rubobi*.

Qashqar rubobi

Qashqar rubobi Qashqardan tarqalgan. Shuning uchun qashqar rubobi deb ataladi. Qashqar rubobining uzunligi 80-100 smdir. Qashqar rubobining cho‘michsimon kosasi tut kabi qattiq daraxtlar yog‘ochidan yasaladi. Kosaning usti teri bilan qoplanadi. Qashqar rubobining dastasi uzun bo‘lib, oxiri qayrilgan bo‘ladi. Kosasinin oldida shoxga o‘xshagan ikkita gajagi bor. Ular shakl berish bilan birga yuqori notalarni chalishda chap qo‘l uchun tayanch vazifasini ham bajaradi. Qashqar rubobi dastasida 19 tadan 23 tagacha parda bo‘ladi. Eski ruboblarda pardalar ichakdan qilingan bo‘lsa, zamonaviy ruboblarning pardalari metalldan qilinadi. Qashqar rubobining beshta simi bor. Qashqar rubobining 5 ta tori, odatda, kvarta-kvinta oralig‘ida sozlanadi. Pastgi ikki sim juft chalinadi. Ochiq chalganda „lya“ tovushini chiqaradigan qilib sozlanadi. 3- va 4- simlar ham juft chalinadi. Bu simlar ochiq chalganda „mi“ tovushini chiqaradigan qilib sozlanadi. 5- sim odatda neylon sim bo‘lib, ochiq chalganda „si“ tovushini chiqaradigan qilib sozlanadi. Qashqar rubobining diapazoni 3 oktavaga yaqin.

Rubobning tovushi jarangdor. Ijrochilikni o‘zlashtirish birmuncha yengilligi, mohir rubobchi-sozandalar (Muhammadjon Mirzayev va boshqalar)ning yetishib chiqishi bu sozning 1940-yillardan O‘zbekiston va Tojikistonda havaskor va professional sozandalar orasida ommaviylashuviga sabab bo‘lgan.

Qashqar rubobining qayta ishlangan zamonaviy turi rubob prima o‘z imkoniyatlari bilan rus domrasiga yaqin, 4 metall tori kvinta oralig‘ida sozlanadi. Orkestrda va yakka soz sifatida ishlatiladi. O‘zbek bastakorlaridan Muhammadjon Mirzayev, sozandalaridan A. Boboxonov, N. Qulabdullayev, kompozitorlardan Ibrohim Hamroyev, Mustafo Bafoyev va boshqalar qashqar rubobi uchun turli janrlarda asarlar yaratishgan.

Afg‘on rubobi

Afg‘on rubobining dastasi kaltaroq bo‘ladi. Afg on rubobi ikki yoni o‘roqsimon o‘yilgan ponasimon shakldagi chuqur ”yina (qazma) kosaxonaga ega. Korpusining yuqori ingichka qismidan iil.iina grifli va 4 bog‘lama pardaH kalta bo‘g‘iz (dasta) davom etadi. Bo‘g‘iz (il.isla)ning quyi qismi kengayib borib, korpusning ustini yopuvchi qopqoqqa ilinadi, qolgan katta qismi teri bilan qoplanadi. Dastasining uzunligi 8-10 sm bo‘ladi. Ovoz kosasi yoki *rezonatori* keng va chuqur bo‘ladi. Rezonatorning uzunligi 80 sm gacha, kengligi 20 sm gacha, chuqurligi 30 sm gacha bo‘ladi. Qorin bilan dasta bir butun yog‘och bo‘lagidan o‘yib yasaladi. Afg‘on rubobida ham qashqar rubobidagi kabi gajaklar bor. Rezonatoring pastgi qismi teri, yuqori qismi yupqa taxtacha bilan qoplanadi. Dastaning asosiy qismida 4-5 ta asosiy parda, taxtachaning ustida 6-7 ta qo‘srimcha *xaspardalar* bo‘ladi. Afg‘on rubobida 5 ta asosiy torga qo‘srimcha ravishda 10-11 ta yordamchi (aks-sado beruvchi) torlar ham bor. Afg‘on rubobining qayta ishlangan turlari ixchamlashtirilgan bo‘ladim ularda yordamchi torlar bo‘lmaydi. Afg‘on rubobi 2 oktava diapazonidagi diatonik tovushqatoriga ega. Asosan, professional sozandalar tomonidan yakka soz sifatida va turli ansambllar tarkibida qo‘llaniladi.



Pomir rubobi

Pomir rubobi qashqar rubobiga o‘xshaydi, ammo kosasi bir oz kattaroq, dastasi bir oz kaltaroq bo‘ladi. Bu tur rubob ham odatda bir butun yog‘och bo‘lagidan yo‘niladi. Kosasining pastki qismi yupqa taxtacha bilan berkitiladi. Kvarta-kvinta oralig‘ida sozlanadigan 5 ta asossiy toridan tashqari yon quloqqa bog‘lanadigan tori bo‘ladi. Bu tor zingag deb ataladi.



Afg'on rubobi, qashqar rubobi 40- yillarda A. I. Petrosyans va . h. Didenko tomonidan takomillashtirilib, o‘zbek xalq cholg‘u orkestri tarkibiga kiritildi. Afg‘on rubobida yordamchi torlar olib tashlangan. Bog‘lama 4 parda o‘rniga liistaga 17 metall yoki yog‘och o‘yma parda o‘rnatilgan. Xalq cholg‘u asboblarini yaxshilashga urinish, ma’lumki, har qanday musiqiy madaniyatda bo‘lgan va bo‘lajak, chunki olimlar ham, xalq sozandalari ham barcha davrlarda o‘z davri musiqa san’ati darajasiga muvofiq bo‘lish uchun milliy cholg‘u asboblari sozini tartibga solishga, diapazonini (ko‘lamini) kengaytirishga, registrini (pardasini) oshirishga intilganlar. O‘zbek sozandalari dutor va boshqa cholg‘u asboblarining ijro imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida azal-azaldan «xas parda» (qo’shimcha parda) deb atalmish vositani qo’llaganlar. Ushbu talablarni hayotning o‘zi yangi ijtimoiy- badiiy vazifalar bilan birga olg‘a surgan. Bu jarayon ma’lum darajada stixi- yali bo‘lib, davrning o‘zgarib borayotgan talablariga javob bergen holda, evolutsion tarzda rivojlangan.

Rubobda 3 ta asosiy tor, undan tashqari 2 ta ustki va 10-11 yordamchi torlar bor. Birinchi va ikkinchi asosiy torlar juft, ipakdan qilingan, uchinchisi — yakka, ichakdan tayyorlanadi. Teri ustida torlar muguzdan yasalgan xarakka yotadi. Asosiy torlar kvartaga sozlanadi. Rubob muguz plastinkali noxun bilan, tizza ustida gorizontal holatda ilib chalinadi. Rubobning umumiyligi diapazoni (shu jumladan barcha asosiy torlar) va xromatik (nimparda) tovushqatorda bor-yo‘g‘i bir oktava bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohirjon Ortiqov “Musiqa o‘qtish metodikasi” Toshkent “Muhammarr” nashriyoti 2010
2. Apraksina O.A. Maktabda musiqiy ta’lim usullari: "Musiqa va qo’shiqchilik" ixtisosligi bo'yicha pedagogika institutlari talabalari uchun darslik - M.: Ta’lim
3. Ilyos Arabov “An’anaviy chog‘u ijrochiligi (Dutor) Toshkent 2018
4. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/d/dutor/>